

KORRUPSIYA – HALOKATGA YO‘L

Islohotlarimiz natijadorligi, avvalo, sadoqatli, fidoyi va korrupsiyaga toqatsiz yangi avlodga bevosita bog‘liq. Bu ishda fikri toza yosh avlodni tarbiyalash ustuvor vazifaga aylanishi shart.

Shavkat MIRZIYOYEV

Globallashuv jarayonida korrupsiya deb atalmish dahshatli illat bir davlat emas, butun bir mintaq yoki jahon taraqqiyotiga tahdid solmoqda. Deyarli har kuni ommaviy axborot vositalarida u yoki bu ko‘rinishda ushbu muammo haqida bong urib gapiriladi. Lekin unga qarshi kurashish, ildiziga bolta urish qiyin kechyapti.

Jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan bu illat – demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi. Ta‘bir joiz bo‘lsa, qo‘l bilan ushlab bo‘lmaydigan, ko‘zga ko‘rinmaydigan bu «chirmov» inson huquqlarining qo‘pol ravishda buzilishiga olib keladi, iqtisodiy rivoj-

saqlash, Qurilish, Suv xo‘jaligi vazirliklari, «O‘zbekneftgaz» va «O‘zsuvta‘minot»ning kompaniya nazorati agentlikka o‘tkaziladi.

Shuningdek, Bosh vazirga 117 ta vazirlik va idoradagi «korrupsiyaga qarshi ichki



Globallashuv jarayonida korrupsiya deb atalmish dahshatli illat bir davlat emas, butun bir mintaq yoki jahon taraqqiyotiga tahdid solmoqda. Deyarli har kuni ommaviy axborot vositalarida u yoki bu ko‘rinishda ushbu muammo haqida bong urib gapiriladi. Lekin unga qarshi kurashish, ildiziga bolta urish qiyin kechyapti.

Jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan bu illat – demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi. Ta‘bir joiz bo‘lsa, qo‘l bilan ushlab bo‘lmaydigan, ko‘zga ko‘rinmaydigan bu «chirmov» inson huquqlarining qo‘pol ravishda buzilishiga olib keladi, iqtisodiy rivojlanishni izdan chiqaradi, jamiyat va davlat uchun o‘ta xavfli bo‘lgan uyushgan jinoyatchilik va terrorizmning keng yoyilishiga sharoit yaratib beradi.

Joriy yilning 5 mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishida ishtirok etdi. Yig‘ilishda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha qilingan ishlarga baho berilib, kelgusi vazifalar belgilandi. Davlatimiz rahbari o‘z nutqida korrupsiya islohotlar yo‘lidagi eng katta to‘siq va g‘ov ekanini ta’kidladi.

Ma‘lumki, so‘nggi yillarda bu illatga qarshi kurashish bo‘yicha qonunlar qabul qilinib, yangi tizim yaratildi. Parlament palatalarida mas‘ul qo‘mitalar, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va Agentlik tashkil qilindi. Lekin Prezident Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatidan mutlaqo noroziligini aytdi. Agentlik xodimlari vazirliklarga, hududlarga borib, aniq bir sohani tahlil qilib, muammolarga yechim berish o‘rniga, qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlarini sanaydigan quruq statist bo‘lib qolgani qayd etildi.

Yig'ilishda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rahbariyati korrupsiya holati eng ko'p bo'lgan tuman sog'liqni saqlash, bandlik bo'limi yoki bank filialiga borib, holatni o'rganmagani, yangi zamonaviy tizim bo'yicha taklif bermagani ko'rsatib o'tildi. Ushbu sohalar rahbarlarining o'z tizimini «korrupsiyadan xoli» qilish ishlari sustligi tanqid qilindi.

Davlatimiz rahbari topshirig'i bilan investitsiya dasturlari ustidan nazorat kuchaytirilganidan keyin o'tgan yilning o'zida 3 trln so'm iqtisod bo'ldi. Yoki sog'liqni saqlash tizimida «Situatsion markaz» ishga tushirilgani hisobiga 2024-yilda 1,2 trln so'mlik maqsadsiz xarajatlarning oldi olindi. «Lekin, nega bu ishlar Prezident topshiriq berganidan keyin boshlanishi kerak?», deya o'rinli savol qo'ydi davlat rahbari. Endi Agentlikning ish uslubi mutlaqo o'zgaradi. Buning uchun tajriba tariqasida 5 ta idora: Sog'liqni saqlash, Qurilish, Suv xo'jaligi vazirliklari, «O'zbekneftgaz» va «O'zsuvta'minot»ning komplayens nazorati agentlikka o'tkaziladi.

Shuningdek, Bosh vazirga 117 ta vazirlik va idoradagi «korrupsiyaga qarshi ichki nazorat» tuzilmalari rahbarlarini ishdan olish va ularning o'rniga halol, fidoyi va professional kadrlardan qo'yish, ularga aniq vazifalarni belgilab berish topshirildi. Vazirliklarning hududiy komplayens xodimlarini bevosita vazirning o'zi ishga qo'yishi, o'ziga siyosiy mas'uliyat olib, butun tizimdagi korrupsiya uchun shaxsan javob berishi belgilandi.

Hozirgi texnologiyalar davrida korrupsiyaning yangi, raqamli ko'rinishlari paydo bo'lmoqda. Shu bois yangi o'quv yilidan Ichki ishlar va Huquqni muhofaza qilish akademiyalarida bu yo'nalishda mutaxassis tayyorlash boshlanadi. Lekin bunday turdagi jinoyatlarni aniqlash va oldini olishda faqatgina zamonaviy kadrlarning o'zi yetarli emas. Xalqaro tajribani o'rganib, kiberkorrupsiyaga qarshi samarali kurashish bo'yicha mustahkam huquqiy baza yaratish zarur. Mansabdorlik va maishiy korrupsiya omillarini tahlil qilish, ularning oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilish zarurligi ta'kidlandi.

Yana shuni alohida aytish o'rinliki, yo'l harakati xavfsizligi inspektorlari «bodi-kamera»da xizmat o'tayotgani, avtoraqamlar auksionda sotilayotgani, qog'ozdagi bayonnoma yo'q bo'lgani uchun korrupsiya omillari keskin kamaydi. Endilikda «bodi-kamera»da faoliyat yuritishi lozim bo'lgan davlat organlari xodimlari ko'lami yanada ko'paytiriladi.

Eng muhimi, jamiyatda korrupsiya muammosini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadigan ochiq tizim, ochiq muhit yaratildi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining bu boradagi o'rni va ta'siri ortib bormoqda. Mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlikni qadrlash, kechagi kun bilan bugungi kunning farqini yaxshi tushunish, mahallada, to'y-ma'rakada ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, halollik va shukronalik bilan hayot kechirishni tushuntirish ishlari bo'yicha jamiyatimizda yaxshi tajribalar yetishmasligi qayd etildi.

Ilgari korrupsiya mavzusi jurnalistlar uchun mutlaqo yopiq edi. Hozirgi vaqtda mavjud holat ochiqlik va shaffoflik tomonga butunlay o'zgardi. Ochiqlik bo'yicha xalqaro reytinglardagi mamlakatimizning o'rnini 138 pog'onaga yaxshilab, Markaziy Osiyoda birinchi, dunyoda 30-o'ringa ko'tarildi. «Takror va takror aytaman: biz ochiqlik siyosatini, so'z erkinligi g'oyalarini hayotga tatbiq etishda hamisha qat'iy bo'lamiz!», dedi davlatimiz rahbari.

Nopok yo'l bilan boylik orttirganlar jazodan qutulib qolish va o'zlarining jinoiy sarmoyalarini himoya qilish uchun har qanday xatti-harakatlarga tayyor turishlarini yaxshi bilib olish lozim. Shundan kelib chiqib aytish kerakki, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari: qonuniylik; fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik; tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi; korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi; javobgarlikning muqarrarliligi.

Korrupsiya – jamiyat taraqqiyoti uchun juda xavfli jinoyat. U nafaqat xufiyona, balki korrupsiyaga doir munosabatlarga kirishgan tomonlarning o'zaro kelishuviga

binoan sodir etiladi. Aksariyat hollarda, u tegishli hokimiyat organlariga shikoyat berilishiga sabab bo'lmaydi, chunki g'ayriqonuniy kelishuvdan ikkala tomon ham naf ko'radi. Hatto pora so'rash holatlari ustidan ham kamdan-kam holda shikoyat qilinadi. Korrupsiya harakatlari odatda davlat faoliyatining mutaxassis bo'lmagan kishilar tushunishi ancha qiyin bo'lgan o'ziga xos turlarida sodir etiladi va u o'ta moslashuvchan jinoyatdir.

Xulosa shuki, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «hammamiz yagona kuch bo'lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san'at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, tanqili shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – umuman butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga «jamiyat tanasidagi saraton» sifatida qarashi kerak». Shundagina bu illatning ildiziga bolta urish mumkin.

O'z muxbirimiz

Sarvar SOBIROV tayyorladi.

КОРРУПЦИЯ – ҲАЛОКАТГА ЙЎЛ

Глобаллашув жараёнида коррупция деб аталмиш даҳшатли иллат бир давлат эмас, бутун бир минтақа ёки жаҳон тараққиётига таҳдид солмоқда. Деярли ҳар куни оммавий ахборот воситаларида у ёки бу кўринишда ушбу муаммо ҳақида бонг уриб гапирилади. Лекин унга қарши курашиш, илдизига болта уриш қийин кечяпти.

Жамиятни турли йўллар билан исканжага оладиган бу иллат – демократия ва ҳуқуқ устуворлиги асосларига путур етказди. Таъбир жоиз бўлса, қўл билан ушлаб бўлмайдиган, кўзга кўринмайдиган бу «чирмовуқ» инсон ҳуқуқларининг қўпол равишда бузилишига олиб келади, иқтисодий ривожланишни издан чиқаради, жамият ва давлат учун ўта хавфли бўлган уюшган жиноятчилик ва терроризмнинг кенг ёйилишига шароит яратиб беради.

Жорий йилнинг 5 март куни Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Коррупцияга қарши курашиш миллий кенгаши йиғилишида иштирок этди. Йиғилишда юртимизда коррупциядан холи муҳит яратиш бўйича қилинган ишларга баҳо берилиб, келгуси вазифалар белгиланди. Давлатимиз раҳбари ўз нутқида коррупция ислохотлар йўлидаги энг катта тўсиқ ва ғов эканини таъкидлади.

Маълумки, сўнгги йилларда бу иллатга қарши курашиш бўйича қонунлар қабул қилиниб, янги тизим яратилди. Парламент палаталарида масъул қўмиталар, Коррупцияга қарши курашиш миллий кенгаши ва Агентлик ташкил қилинди. Лекин Президент Коррупцияга қарши курашиш агентлиги фаолиятдан мутлақо норозилигини айтди. Агентлик ходимлари вазирликларга, ҳудудларга бориб, аниқ бир соҳани таҳлил қилиб, муаммоларга ечим бериш ўрнига, қўзғатилган жиноят ишларини санайдиган қуруқ статист бўлиб қолгани қайд этилди.

Йиғилишда Коррупцияга қарши курашиш агентлиги раҳбарияти коррупция ҳолати энг кўп бўлган туман соғлиқни сақлаш, бандлик бўлими ёки банк филиалига бориб, ҳолатни ўрганмагани, янги замонавий тизим бўйича таклиф бермагани кўрсатиб ўтилди. Ушбу соҳалар раҳбарларининг ўз тизимини «коррупциядан холи» қилиш ишлари сустиги танқид қилинди.

Давлатимиз раҳбари топшириғи билан инвестиция дастурлари устидан назорат кучайтирилганидан кейин ўтган йилнинг ўзида 3 трлн сўм иқтисод бўлди. Ёки соғлиқни сақлаш тизимида «Ситуацион марказ» ишга туширилгани ҳисобига 2024 йилда 1,2 трлн сўмлик мақсадсиз харажатларнинг олди олинди. «Лекин нега бу ишлар Президент топшириқ берганидан кейин бошланиши керак?», дея ўринли савол қўйди давлат раҳбари. Энди Агентликнинг иш услуби мутлақо ўзгаради. Бунинг учун тажриба тариқасида 5 та идора: Соғлиқни сақлаш, Қурилиш,

Сув ҳўжалиги вазирликлари, «Ўзбекнефтгаз» ва «Ўзсувтаъминот»нинг комплаенс назорати агентликка ўтказилади.

Шунингдек, Бош вазирга 117 та вазирлик ва идорадаги «коррупцияга қарши ички назорат» тузилмалари раҳбарларини ишдан олиш ва уларнинг ўрнига ҳалол, фидойи ва профессионал кадрлардан қўйиш, уларга аниқ вазифаларни белгилаб бериш топширилди. Вазирликларнинг ҳудудий комплаенс ходимларини бевосита вазирнинг ўзи ишга қўйиши, ўзига сиёсий масъулият олиб, бутун тизимдаги коррупция учун шахсан жавоб бериши белгиланди.

Ҳозирги технологиялар даврида коррупциянинг янги, рақамли кўринишлари пайдо бўлмоқда. Шу боис янги ўқув йилидан Ички ишлар ва Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияларида бу йўналишда мутахассис тайёрлаш бошланади. Лекин бундай турдаги жиноятларни аниқлаш ва олдини олишда фақатгина замонавий кадрларнинг ўзи етарли эмас. Халқаро тажрибани ўрганиб, киберкоррупцияга қарши самарали курашиш бўйича мустаҳкам ҳуқуқий база яратиш зарур. Мансабдорлик ва маиший коррупция омилларини таҳлил қилиш, уларнинг олдини олиш бўйича илмий асосланган таклифлар ишлаб чиқиб, амалиётга жорий қилиш зарурлиги таъкидланди.

Яна шуни алоҳида айтиш ўринлики, йўл ҳаракати хавфсизлиги инспекторлари «боди-камера»да хизмат ўтаётгани, авторақамлар аукционда сотилаётгани, қоғоздаги баённома йўқ бўлгани учун коррупция омиллари кескин камайди. Эндиликда «боди-камера»да фаолият юритиши лозим бўлган давлат органлари ходимлари кўлами янада кўпайтирилади.

Энг муҳими, жамиятда коррупция муаммосини жамоатчилик муҳокамасига олиб чиқадиган очиқ тизим, очиқ муҳит яратилди. Айниқса, оммавий ахборот воситаларининг бу борадаги ўрни ва таъсири ортиб бормоқда. Мамлакатимиздаги тинчлик ва барқарорликни қадрлаш, кечаги кун билан бугунги куннинг фарқини яхши тушуниш, маҳаллада, тўй-маъракада ортиқча исрофгарчиликка йўл қўймаслик, ҳалоллик ва шукроналик билан ҳаёт кечиришни тушунтириш ишлари бўйича жамиятимизда яхши тажрибалар етишмаслиги қайд этилди.

Илгари коррупция мавзуси журналистлар учун мутлақо ёпиқ эди. Ҳозирги вақтда мавжуд ҳолат очиқлик ва шаффофлик томонга бутунлай ўзгарди. Очиқлик бўйича халқаро рейтинглардаги мамлакатимизнинг ўрни 138 поғонага яхшиланиб, Марказий Осиёда биринчи, дунёда 30-ўринга кўтарилди. «Такрор ва такрор айтаман: биз очиқлик сиёсатини, сўз эркинлиги ғояларини ҳаётга татбиқ этишда ҳамиша қатъий бўламиз!», деди давлатимиз раҳбари.

Нопок йўл билан бойлик ортирганлар жазодан қутулиб қолиш ва ўзларининг жиноий сармояларини ҳимоя қилиш учун ҳар қандай ҳатти-ҳаракатларга тайёр туришларини яхши билиб олиш лозим. Шундан келиб чиқиб айтиш керакки, коррупцияга қарши курашишнинг асосий принциплари: қонунийлик; фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларининг устуворлиги; очиқлик ва шаффофлик; тизимлилик; давлат ва фуқаролик жамиятининг ҳамкорлиги; коррупциянинг олдини олишга доир чора-тадбирлар устуворлиги; жавобгарликнинг муқаррарлиги.

Коррупция – жамият тараққиёти учун жуда хавфли жиноят. У нафақат хуфиёна, балки коррупцияга доир муносабатларга киришган томонларнинг ўзаро келишувига

биноан содир этилади. Аксарият ҳолларда, у тегишли ҳокимият органларига шикоят берилишига сабаб бўлмайди, чунки ғайриқонуний келишувдан иккала томон ҳам наф қўради. Ҳатто пора сўраш ҳолатлари устидан ҳам камдан-кам ҳолда шикоят қилинади. Коррупция ҳаракатлари одатда давлат фаолиятининг мутахассис бўлмаган кишилар тушуниши анча қийин бўлган ўзига хос турларида содир этилади ва у ўта мослашувчан жиноятдир.

Хулоса шуки, Президентимиз таъкидлаганидек, «ҳаммамиз ягона куч бўлиб ҳаракат қилсак, албатта, катта ижобий самарага эришамиз. Шу боис маҳалла фаоллари, нуронийлар, зиёлилар, ёзувчи ва шоирлар, санъат ва маданият ходимлари, тадбиркорлар, таниқли шахслар, раҳбарлар, депутат ва сенаторлар – умуман бутун жамоатчилик бирлашиб, коррупцияга «жамият танасидаги саратон» сифатида қараши керак». Шундагина бу иллатнинг илдизига болта уриш мумкин.

Ўз мухбиримиз

Сарвар СОБИРОВ тайёрлади.